


Shuhrat HAYITOV,
filologiya fanlari doktori

CHAMBARCHAS TARIX VA NURAFSHON KELAJAK

yoxud Ozarbayjon va Yangi O'zbekiston
munosabatlarida yorqin davr





O‘zbek va ozarbayjon xalqining do‘stlik rishtalari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Kavkaz tog‘larining janubi-sharqiy qismida, Kaspiy dengizining qirg‘oqlarida joylashgan Ozarbayjon Respublikasi mintaqadagi eng yirik iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan rivojlangan mamlakatlardan. Bu o‘lkaning, ayniqsa, maftunkor tabiati, boy tarixi, milliy an‘ana va qadriyatlari sayyohlarni o‘ziga ohangraboday tortadi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Ozarbayjon hududida paleolit davridan aholi yashay boshlagan. Miloddan avvalgi VII–VI asrda Ozarbayjonda Midiya davlati tashkil topgan. O‘zbek davlatchiligi tarixida xalqimiz boshidan o‘tkazgan ko‘pgina bosqinlar Ozarbayjon xalqini ham chetlab o‘tmagan. Xususan, miloddan avvalgi VI asrdagi ahamoniylar, makedoniyalik Aleksandr bosqini, VIII asr boshidagi arab xalifaligining fathi, XII asrda Chingizxon boshchiligida mo‘g‘ullar istilosi kabi siyosiy jarayonlarda ikki qardosh xalq bir-birini qo‘llagan.

Bu go‘zal diyor buyuk sobiqqiron Amir Temur faoliyatida ham o‘ziga xos o‘rin tutgan. Buyuk Temurning sevimli qarorgohlaridan biri aynan Qorabog‘da bo‘lgan. Amir Temur 1399 – 1401 yillarda Ozarbayjon(Qorabog‘) ga yurishi davomida ushbu hududda ko‘plab mustah-

kam qal‘alar va bog‘lar barpo ettiradi. Tog‘li Qorabog‘dagi qarorgohlaridan turib, Turkiya sultoni Boyazid I va qoraqayunli turkmanlar xavfiga qarshi kurashadi. U shuningdek, mintaqada obodonlashtirish ishlarini olib boradi. Qorabog‘da 42 kilometrlik kanal qurdirib, Mug‘on shahrida 12 ta bog‘ barpo ettiradi.

Amir Temur 1401 yilda Rumga yurishi oldidan Qorabog‘da qishlab qoladi va Aras (Araks) daryosidan bog‘larni sug‘orish uchun ariq va kanallar qazdiradi. Mazkur obodonchilik ishlarini muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy quyidagicha bayon qiladi: “O‘tgan podshohlardan ba‘zilari Aras atrofidagi cho‘llarda daryolar, ariqlar qazdirgan edi. Zamonlar o‘tishi bilan u ariqlar buzilib, butunlay ko‘milib ketgandi. Sobiqqiron ko‘rsatmasiga ko‘ra, ushbu ariqlarni qaytadan qurish tavochilar, amirlar va askarlarga taqsimlab berildi”. Hozir ham Qorabog‘da Amir Temur boshchilik qilgan ba‘zi qurilish inshootlari, bog‘lar mavjud. Nizomiddin Shomiyning yozishicha, o‘sha paytda Gilon va Mazandaron (Kaspiy) dengizigacha yetib boradigan daryolar qazdirilgan.

Ikki qardosh xalq o‘rtasidagi bunday tarixiy bog‘liqlik keyinchalik yanada rivojlanib boradi. Muhammad Fuzuliyning Alisher Navoiy ijodiga bo‘lgan yuksak



hurmat-e'tibori, ustoz deb bilib g'azallariga ko'plab muxammaslar bog'lagani, shuningdek, ikki lashkarbos-hi, ikki buyuk shoir Shoh Ismoil Xatoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur o'rtasidagi o'zaro do'stona munosabatlar yoki ma'rifat fidoyilari bo'lgan Munavvar Qori Abdurashidxonov, Fitrat, Abdulla Qodiriy va Cho'lponlarning ilmiy-adabiy va siyosiy aloqalari, keyinchalik XX asrda yashab ijod qilgan yana ko'plab shoir va yozuvchilarning ozarbayjonlik ijodkorlar bilan do'stona aloqalari, xususan, atoqli yozuvchi, shoir va dramaturg Maqsud Shayxzoda hayoti va faoliyati bu ikki qardosh xalq o'rtasidagi tarixiy adabiy aloqalarning amaliy ifodasidir.

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi do'stlik rish-talari bugun yanada yangi bosqichga chiqdi. Ikki qar-

dosh mamlakatning muhtaram rahbarlari – Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev samimiy do'stlik va o'zaro ishonchga asoslangan diplomatik muloqotlari tufayli davlatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yanada kuchaydi. Buni ko'plab siyosiy, iqtisodiy va madaniy jabhalarda erishilayotgan natijalar misolida ham aytish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ikki xalqni bir-biriga yaqinlashtirgan umumiy va o'xshash jihat bu ularning tili, adabiyoti va madaniyatida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Shu o'rinda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi madaniy hamkorlikning yorqin timsoli sifatida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti ro'parasida salobat baxsh etib turgan Nizomiy Ganjaviy haykalini



aytib o'tishimiz mumkin. Bu haykal, nafaqat ajoyib haykaltaroshlik asari, balki xalqimizning Nizomiy dahosiga bo'lgan chuqur hurmati, qardosh ozarbayjon xalqiga, uning qadimiy tarixi, madaniyati, uning asrlar osha sinalgan so'nmas ruhi, mustahkam irodasi, uning yorqin kelajagiga hurmat va ishonch ramzidir. Shuningdek, Bokuda Alisher Navoiyga qo'yilgan muhtasham haykal ham o'zbek shoiri timsolida o'zbek xalqiga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtirom belgisidir.

Agar mumtoz adabiyotimiz tarixiga nazar tashlasak, Nizomiy Ganjaviy ijodining o'zbek adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatganiga amin bo'lamiz. Jumladan, Qutb Xorazmiy Nizomiy ta'siri ostida o'zining "Xusrav va Shirin" dostonini yozgani ma'lum. Shuningdek, o'zbek adabiyotining mumtoz namoyandalari bo'lmish Lutfiy,

Xorazmiy, Durbek, Gadoyi, Atoyi, Sakkokiy kabilar ijodida Ozarbayjon adabiyotining ta'siri seziladi. Haydar Xorazmiy ilk bor Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi") asari ta'sirida o'zining "Gulshan ul-asror" asarini yozgani barchamizga ma'lum. Nafaqat o'zbek, balki butun turkiy xalqlar adabiyotining buyuk namoyandasi, mutafakkir shoir, olim, davlat va jamoat arbobi, ilm va adabiyot homiysi bo'lmish Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviy an'alarini davom ettirib, ilk bor turkiy tilda "Xamsa" dostonini yaratdi. Navoiy Nizomiydan farqli ravishda o'z "Xamsa"sini turkiy tilda bitib, bu tilning qudratini namoyish etdi. Dostonlarning har muqaddimasida Nizomiyni faxr bilan tilga oldi, unga bo'lgan cheksiz hurmatini, ixlosini bayon etdi. U Nizomiyni o'ziga ustoz deb bildi. Keyinchalik ham adabiy ta'sir, aloqalar to'xtab qolmadi. Ozarbayjon adabiyotining ko'rkam vakillaridan biri Muhammad Fuzuliy Navoiyni o'ziga birinchi ustoz bilib, unga ergashib g'azallariga naziralar bitdi. Shuning barobarida o'zbek adabiyoti namoyandalari ham Fuzuliy o'ziga ustoz sifatida bildi. Muhammad Rizo Ogahiy, Amir Umarxon, Andalib, Muqimiy, Uvaysiy, Roqim, Sulton Sayyid Nosirxon, Tabib Xorazmiy, Sadir Erkin kabi mumtoz o'zbek shoirlarining Fuzuliy g'azallariga naziralar bitgani ma'lumdur. Fuzuliy nomi butun turkiy xalqlar adabiyotining buyuk siymosi sifatida e'tirof etiladi.

Yuqorida ham ta'kidlaganimizdek ikki qardosh xalqning uzoq tarixga ega bo'lgan ko'p tomonlama hamkorlik aloqalari bugunga kunga kelib yanada keng quloch yoydi. Buni ikki mamlakat o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jabhalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı do'stona aloqalar misolida ham aytish mumkin.

Bugun O'zbekiston va Ozarbayjon turli xalqaro tashkilotlar, xususan, Turkiy davlatlar tashkiloti, BMT, IHT va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasida yaqin hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Oliy darajadagi olib borilayotgan muntazam muzokaralar ikki tomonlama munosabatlarning yuqori darajada ekanini namoyon qilmoqda. Masalan, iqtisodiyotning turli sohalari, jumladan energetika, logistika, sanoat va qishloq xo'jaligi yo'nalishlaridagi hamkorlik kengayib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, oxirgi besh yilda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi ikki baravardan oshgan va 2030 yilga qadar tovar ayirboshlashni 1 milliard dollarga yetkazish dasturi qabul qilingan. Shuningdek, 2025-2026 yillarga mo'ljallangan sanoat kooperatsiyasi dasturi, 2025 – 2027 yillarda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti sohasidagi hamkorlikni yanada



rivojlantirish bo'yicha amaliy harakatlar rejasi, 2025 – 2027 yillarda ijtimoiy himoya sohasida hamkorlik bo'yicha chora-tadbirlar rejasi qabul qilinishi aynan iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, savdo-sotiqni rivojlantirish va soddalashtirishga xizmat qiladi.

Ikki mamlakatning madaniy-gumanitar aloqalar ham yil sayin rivojlanib borayotganligini alohida qayd etish

lozim. Xususan, ta'lim va fan sohasida tajriba almashish, turizmni rivojlantirish kabi sohalarida hamkorlik samarali olib borilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston boshidan Ozarbayjonning hududiy yaxlitligini ta'minlanish pozitsiyasida bo'lgan va bevosita shunda ishtirok etgan. Turli xalqaro maydonlarda mazkur qat'iy nuqtai nazarni ta'kidlab kelgan.





Qorabog'dagi g'alabadan so'ng, O'zbekiston birinchilar qatoridan Ozarbayjonga Qorabog'ning tiklanishi va uning rivojlanishi borasida yordam qo'lini uzatdi. Xususan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan birodar xalqlarimiz o'rtasidagi mustah-

kam do'stlik ramzi sifatida 2023-yilda Fuzuliy shahrida Mirzo Ulug'bek nomidagi zamonaviy maktab qurildi. Ozarbayjon xalqi ushbu ishni mamlakatimiz yetakchisining hududda ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani tiklash yo'lidagi buyuk sa'y-harakati sifatida yuksak e'tirof etdi. Umuman olganda, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlar nafaqat ikki tomonlama rivojlanish, balki Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalarining barqarorligi va farovonligi uchun muhim omildir.

Ikki mamlakat o'rtasidagi tarixiy, ilmiy-adabiy aloqalar mustahkamlanayotganiga 2025-yilda Ozarbayjonga uyushtirgan xizmat safarimiz mobaynida yana bir karra amin bo'ldik. "O'zbekiston tarixi" telekanali ijodiy jamoasi hamda bir guruh olim, jurnalist va blogerlar ishtirokida Ozarbayjon Respublikasiga uyushtirilgan Mediaturni O'zbekistondagi Ozarbayjon elchixonasi huzuridagi Haydar Aliyev nomli Ozarbayjon madaniyat markazi tashkil etgan bo'lib, ushbu mediaturni Ozarbayjonni ko'rish va yana bir bor yaqindan kashf etish imkonini berdi.

2025-yil 30-oktyabr.

Tog'lar mamlakati Ozarbayjonning poytaxti Boku shahri. Ham milliylik ham zamonaviylik uyg'unlashgan bu ko'hna kent Kaspiy dengizining qirg'og'ida, yarim oy shaklida joylashgan. Boku aeroportidan shahar markaziga qarab ketar ekanmiz, yuzlari nurli odamlar azaldan





bizga qadrdonday tuyuladi. Bu shaharda o'zbeklar begonaligini his etmaydi. Zero, tilimiz, dinimiz bir, madaniyatimiz, mehmondo'stligimiz o'xshash.

Ilmiy sayohatimizni vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan "Shahidlar xotirasi" majmuasini ziyorat qilishdan boshladik. O'tganlarni xotirlab, ular haqqiga duo qilganimizdan so'ng, bir necha yildan buyon Qorabog' haqida turkum jurnalistik ijodiy materiallar tayyorlab e'lon qilib kelayotgan Yevrosiyo xalqaro matbuot fondi raisi Umid Mirzayev huzuriga keldik. Fond Bokuning qoq markazida, bir yoni "Shahidlar maydoni" va Hazar dengiziga tutash hududda joylashgan.

Ozarbayjonga uyushtirgan sayohatimizning navbatdagi manzili Ichkari shahar davlat tarixiy me'moriy qo'riqxonasi bo'ldi. Bokuliklar bu qo'riqxonani "eski shahar", "qal'a" deb atashadi. Qo'riqxona xududiga aholi bronza davrida ko'chib kela boshlagan. VIII – XI asrlarda bu yerda hunarmandchilik, savdo rivojlangan. XV asrga kelib Shoh Shirvonshoh o'z qarorgohini aynan shu yerga ko'chirib kelgan. Qadimgi shahar mustahkam devorlar bilan o'ralgan bo'lib, unda bozor maydoni, eski ko'chalar mavjud. Qiz qal'asi, Muhammad va Chin masjidlari, qadimgi butlar, Shirvonshohlar saroyi kabi tarixiy yodgorliklar saqlanib qolgan va ular bugungi kunda Ozarbayjonning eng nodir tarixiy inshootlari sifatida madaniy meros ob'ektlari ro'yxatiga kiritilgan. 1747-yildan 1806-yilgacha Ichki shahar Boku xonligining poytaxti

bo'lgan. XIX asrning o'rtalaridan Boku shiddatli ravishda kengaytirilgani bois, shahar qal'a devorlaridan tashqariga chiqib, bugungi zamonaviy Boku paydo bo'lgan. Bugun ichki shaharda yodgorliklar bilan karvonsaroylar, hammomlar, savdo ob'ektlari, kafe va restoranlar faoliyat yuritadi. Bu maskan dunyo sayyohlari bilan gavjum. 1969-yilda Leonid Gayday tomonidan suratga olingan "Brilliant qo'l" komediya filmining tarvuz po'chog'iga qoqilgan maxsus epizodi ham aynan ushbu hududda tasvirga olingan va bu joy barchani o'ziga jalb etib keltirmoqda. Shu tosh ko'chalarning birida yana bir mo'jaz va mashhur tarixiy joy bor. Qiz qal'asi. Ichki shahar davlat tarixiy-me'moriy qo'riqxonaning eng muhtasham yodgorliklaridan biri bo'lgan ushbu qal'aning aniq qurilgan vaqti noma'lum. Ammo olimlar minoranining qurilish texnologiyasini o'rganib, uning ikki bosqichda barpo etilganini taxmin qilishadi. Birinchisi, islomdan avvalgi davrda, unga bitilgan yozuvga ko'ra qayta ta'mirlash ishlari XII asrda amalga oshirilgan. XVII – XIX asrlarda ushbu qal'adan mayoq sifatida foydalanilgan. Yangi Bokuning baland binolari qad ko'targach, qal'aning chiroqlari shahar chiroqlari bilan aralashib ketgan va u 1907-yilga boshqa orolga ko'chirilgan. Qiz qal'asi 2000-yilda YUNESKOning umumjahon madaniy merosi ob'ektlari ro'yxatiga kiritilgan.

Safarimizning navbatdagi manzili Ozarbayjon Ilmlar akademiyasi bo'ldi. Bizni u yerda akademiya Prezidenti –



akademik Iso Habibiyli kutib oldi. Suhbatimiz O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi iliq va o'zaro ishonchga asoslangan ilmiy munosabatlar, adabiy yo'nalishdagi azaliy do'stlik aloqalari haqida bordi. Ozarbayjonliklar o'zbek xalqining boy tarixi va madaniyati, jahon tamadduniga qo'shgan hissasiga hurmat bilan qarashi, bugungi kunda Ozarbayjon ilmlar akademiyasi huzurida Alisher Navoiy ilmiy-tadqiqot markazi faoliyat ko'rsatayotganligi bejiz emasligi ta'kidlandi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi ilmiy-adabiy hamkorlik aloqalari keyingi yillarda kun sayin rivojlanib borayotganligi e'tirof etildi.

Shundan so'ng? O'zbekistonning chin do'stlari, kamtar va samimiy olimlar, adabiyotimizning chinakam tadqiqotchi va targ'ibotchilariga tashakkurimizni izhor etgan holda navbatdagi manzil "AzTV" – Ozarbayjon teleradio birlashmasi tomon yo'l oldik. Bizni u yerda Ozarbayjon televideniyesi rahbari Ravshan Mamedov kutib oldi. Ikki davlat media sohasi yo'nalishi bo'yicha vakillar o'rtasida fikr almashildi. Xabarlar, tahliliy va mavzuli ko'rsatuvlar, tok-shoular, ilmiy-ommabop dasturlarning tayyorlanishi, televideniye uchun muhim bo'lgan texnologiya va teledizayn kabi masalalar bo'yicha o'zaro tajriba almashildi.

Shunday qilib, bir hafta davom etgan mediatur safarimiz chin ma'noda, esda qolarli, tarixiy xotiralarga boy

bo'ldi. Boku, Fuzuliy, Susha kabi shaharlarning kecha va buguni haqida ko'p taassurotlarga ega bo'ldik. Bu manzillarni ko'rdik, bildik va yanada teran angladik. Ikki xalq, ikki millatning azaliy do'stligi, bugungi har tomonlama aloqalari hamda istiqboldagi rejaları bilan yaqindan tanishdik. Qardosh ikki xalqning mushtarak tarixi, madaniyati, an'ana va qadriyatlari, ayniqsa, boy ilmiy-adabiy aloqalari haqida ko'pdan ko'p ma'lumotlarga ega bo'lib, bir olam taassurotlar bilan yurtimizga qaytdik.

Bir guruh ijodkorlar hamrohligida kechgan ushbu safarimiz keyingi ishlarga ham debocha bo'ldi, yangidan yangi ijodiy hamkorlik ishlarining boshlanishiga sabab bo'ldi. Madaniyat, san'at, kino va adabiyot sohalarida o'zaro hamkorlik ishlarining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qildi. Safar tafsilotlari haqida gazeta va jurnallarda, internet saytlarida ko'plab materiallar e'lon qilindi. Xususan, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi telekanallarida Ozarbayjon haqida qator ko'rsatuv va hujjatli filmlar tayyorlanib, o'zbek teletomoshabinlariga ilk bor Ozarbayjon va Qarabog' haqida hujjatli filmlar namoyish etildi. Ayni kunlarda qardosh xalq kinoijodkorlari bilan muhtaram Prezidentimiz qarorlariga ko'ra tasvirga olinayotgan 54 ta tarixiy filmdan iborat "Tirik tarix" dasturidan o'rin olgan "Mulla Nasriddin", "Maqsud Shayxzoda" hamda "Navoiy va Fuzuliy" kabi kinofilmlarni hamkorlikda ishlab chiqarish bo'yicha qizg'in ishlar olib borilmoqda. 🌟